

Mustamlaka ta'lim siyosati va ayollar vizual obrazining shakllanishi

Nodira Nazarqulova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: osiyouzturk@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustamlaka davrida ayollar obrazining shakllanishi tahlil qilinadi. Xususan, kolonial siyosat va ta'lim tizimlarining ayollarning ijtimoiy va vizual tasvirlarini qanday o'zgartirganiga diqqat qaratiladi. Maqola mustamlakachilik jarayonida ayollarning tasviri, ta'lim siyosatining ular uchun qanday yangi normativ rollarni yaratgani, va bu tasvirlarning ularning jamiyatdagi o'rni va qabul qilinishi bilan qanday bog'liqligini ko'rib chiqadi. Buning natijasida, ayollarning vizual obrazlari, ular uchun belgilangan ijtimoiy normativlar va tasvirlarni o'zgartirishda ta'lim siyosatining muhim roli ta'kidlanadi. Maqolada tarixiy va zamonaviy misollar orqali mustamlakachilik davrida ta'lim siyosatining ayollarni ijtimoiy qadriyatlar va madaniy normativlarga ta'siri o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Mustamlaka ta'lim siyosati, ayollar tasviri, vizual obraz, kolonializm, ijtimoiy normativlar, madaniy ta'sir, ayollarning roli, ta'lim va gender, mustamlakachilik davri, ayollarni ta'limga yondashuv

Koreys ayollari vizual qiyofasining shakllanishida milliy uyg'onish harakatlari va xristian dini ta'siridan keyingi yakuniy va hal qiluvchi omil – Yaponiya mustamlaka tuzumi hisoblanadi. Zamonaviy g'oyalarning to'liq kirib kelishi va o'zlashtirilishi jarayoni ham yapon mustamlakachiligi davriga to'g'ri kelib, bu o'zgarishlar ko'cha-ko'ylarda, me'morchilikda, kiyinish uslublarida, o'zini tutishida va hattoki oilaviy munosabatlarda ham ochiq sezilib turgan. Buni bu davrga ko'plab vizual materiallardan ham ko'rish mumkin. Xalqning milliy mentalitetini yo'qotish doim ham mustamlakachi mamlakatlar siyosatining ajralmas yo'nalishi hisoblanib, yaponlarning yarimorolda yuritgan boshqaruvi ham bunga yorqin misol bo'la oladi.

Koreyaning 1910-yilda Yaponiya mustamlakasiga aylantirilishi yarimorolning mo'g'ullar davridan keyingi boshqa bir davlat tomonidan birinchi rasmiy bo'ysundirilishi hisoblanadi. Tarixiy tadqiqotlarda Koreyaning bu davrdagi umumiy vaziyatini boshqa mustamlakaga aylantirilgan davlatlar qatorida xo'rlangan va talangan xalqning qarshilik harakatlari nuqtai-nazaridan ochib berishga asosiy urg'u berilgan. Bir qator izlanuvchilar Koreyani mustamlakaga aylantirgan ichki va tashqi omillarni o'rganish barobarida mustamlakachilik tuzumi natijasida koreys xalqi hamda uning mentalitetida sodir bo'lgan o'zgarishlarni ham o'rganishgan. Ijtimoiy va madaniy omillar ichida muqim qotib qolgan ijtimoiy tabaqalanish tizimining bo'g'uvchi ta'siri, koreys xalqining fidokorlik va milliy birlik hissining zaifligi, shuningdek, nikoh, gigiena va mehnatga doir urf-odatlari ham mavjud¹. Bu omillarning ko'pchiligi, agar barchasi bo'lmasa, Koreyaning anneksiya qilinishiga olib kelganini qayd etish kerak. Garchi, ularning ahamiyatlilik darajasi farq qiladi, ayniqsa XX asrning birinchi o'nyilligidan ancha avval sodir bo'lgan voqealarni yarimorolning baxtsizligida ayblash muammolidir.

1905-yil noyabr oyida Koreya va Yaponiya o'rtasida protektorat tartibini o'rnatish to'g'risida kelishuv imzolandi, 1910-yilda yarimorol to'liq anneksiya qilindi va Choson qirolligining tashqi aloqalari va ichki moliyaviy masalalari ustidan yapon boshqaruvining o'rnatilishiga sabab bo'ldi. 1860-yildan beri Meydzi Yaponiyasi siyosiy davralari markazida bo'lib kelgan Ito Hirobumi 1906-yilda birinchi rezident general sifatida Koreyaga etib kelgan edi. Ito Hirobumi yarimorolga ko'chib kelayotgan yaponlar yordamiga tayangan holda, boshqaruvni mustahkamlash siyosatini olib boradi. Buning natijasida 1910-yildagi anneksiya to'g'risidagi shartnoma 1907-yilda amalda tugallab bo'lingan Yaponiya nazoratini rasmiylashtirgan, xolos².

1910-yildan so'ng imperiya hukumati amalga oshirgan birinchi vazifa – xususiy gazetalar va nashriyotlar faoliyatiga chek qo'yish siyosatini yuritish bo'ldi. Barcha koreyslar tomonidan yuritiladigan milliy turdagi faoliyat yoki tugatildi yoki

¹ Hwang K. M. A History of Korea. An Episodic Narrative. – London: Palgrave Macmillan, 2010. – P. 163.

² O'sha manba, 165-bet

qattiq nazoratga olindi, shu sababdan ham yapon mustamlaka rejimi “harbiy boshqaruv” nomini oldi. Mustamlaka ma’muriyati yarimorolda mavjud har qanday harbiy yoki sust qarshilik harakatini yo‘q qilish, Koreya muxtoriyatini tiklashga bo‘lgan urinishlarga yo‘l qo‘ymaslikka intilgan. Chunki, 1907-yilda qirol Kojong tomonidan Gaagaga yuborilgan diplomatik missiya yaponlarni jiddiy tashvishga solib qo‘ygan edi.

Yarimorolda Yaponiya mustamlaka general-gubernatorligi qo‘llagan siyosat nafaqat moddiy sohalariga ta’sir ko‘rsatdi, balki xalqning yashash tarzi, madaniy-ma’rifiy hayotini tubdan o‘zgartirdi. Mustamlakachi hukumat yarimorolda boshqaruvni to‘liq o‘rnatish borasida “yumshoq” vositalarni ham ishga solgan. Jumladan, moliya-bank sohasidagi o‘zgarishlar; kommunikatsiya va transport sohasiga hukumat investitsiyalari; maktablar va kasb-hunar ta’limi markazlarining qurilishi; shifoxonalar va sog‘liqni saqlash, gigiena masalalarini o‘rgatish hamda umuman ahvolni yaxshilashga qaratilgan o‘zgarishlar o‘tkazildi; o‘ziga xos tarafi shundaki, o‘sha davr uchun noodatiy bo‘lgan fohishalarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish majburiy qilib qo‘yildi. Bu ishlar avvalambor, tobora ko‘payib borayotgan yaponlar migratsiyasining foydasi uchun hamda mustamlaka ekspluatatsiyasini kuchaytirish maqsadida amalga oshirilgan bo‘lsa ham, koreya xalqi uchun ijobiy sanalgan yangiliklar ham bo‘lgan. Albatta, chekka qishloqlardagi koreyslar bu o‘zgarishlarni kundalik hayotda deyarli his qilmagan bo‘lishi mumkin, ammo o‘rnatilgan mustamlaka tuzumning ta’siri natijalari ularga oz bo‘lsa-da etib borgani aniq. Biroq ko‘plab koreyaliklarning qarshilik harakatini uyushtirishga shunchaki rag‘bati bo‘lmagan³.

Yaponiya general-gubernatorligi ta’lim islohoti.

Yaponiya mustamlakachiligi tizimi boshqa zamondosh mustamlaka tizimlari kabi o‘zi “qo‘shib olgan” yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri bosib olgan hududlarda mustahkam joylashib olishga qaratilgan siyosat yuritadi. Bu siyosatning muhim yo‘nalishi ta’lim bo‘lib, u mustamlaka qilingan xalq ongiga kirib borishning samarali yo‘li hisoblangan. Imperator hukumati yarimorolda ta’lim tizimining ahvolini o‘rganish

³ O‘sha manba, 170-bet.

uchun o'z tekshiruvchilarini yuborgan. Koreyadagi ta'limning ahvolini tekshirgan general-gubernatorlik maslahat kengashi a'zosi Hara Shoichiro "Koreyaga sayohatlar" nomli memuarida 1914-yilda Kyongsong qizlar oliy maktabiga qilgan sayohati haqida agar ayollar ham qamrab olinmasa, Koreyada amalga oshirilishi rejalashtirilgan har qanday iqtisodiy yoki ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish juda qiyin, deb xulosa bergan. Muallifning fikriga ko'ra, erkaklarga qaraganda "... koreys ayollariga ta'sir o'tkazish sezilarli darajada oson"⁴. Ayollarning uydagi kuchli mavqei va kuchi tufayli ularda "erkaklarga ta'sir" o'tkazishda muammo bo'lmasligi ehtimol⁵.

Yaponiya mustamlaka ma'muriyati Koreyada ta'lim islohotini o'tkazishda avvalambor koreys xalqini yaponlashtirish maqsadidan kelib chiqib, ikki muhim masalaga e'tibor qaratgan: 1) yapon maktablarini tashkil qilish; 2) 1910-yilgacha bo'lgan davrda ochilgan xristian maktablarini to'liq gubernatorlik nazoratiga olish yoki tugatish.

Yaponiya mustamlaka ta'lim siyosati.

Mustamlakachi davlatlarda bo'lganidek, yaponlar general-gubernatorlik o'rnatilguniga qadar yarimorolda mavjud bo'lgan har qanday rivojlanish elementlarini rad qilish yo'lidan bordi. Jumladan, 1910-yilgacha bo'lgan ta'lim tizimi haqida yapon ma'murlaridan biri "General[-gubernatorlik] qarorgohi tashkil etilishidan oldin, hech bo'lmaganda zamonaviy ma'noda, Koreyada ta'lim borasida e'tiborga molik hech narsa yo'q edi"⁶, deb yozgan. Yaponiyalik pedagoglardan biri Shidehara Taira esa yaponcha ta'lim usullari koreys xalqi uchun "yaxshilik keltiradi" va osoyishtalikni ta'minlaydi, deb ta'kidlagan⁷.

Anneksiya davrining birinchi o'n yili davomida general-gubernator Terauchi Masataki (1910-1916) yarimorolda boshqaruvni *budan seiji* – harbiy boshqaruv

⁴ Hara Shoichiro. Chosen no tabi [Travels in Korea]. Tokyo: Gonshodo Shoten, 1917. – p. 80. Cited in Ryang S. Japanese Travellers in Korea. // East Asian History. Institute of Advanced Studies, Australian National University. – N 13/14, June/December 1997. No. 13/14. – PP. 133-152.

⁵ Kim Kyeongil. Yeoseongui geundae, geundaeui yeoseong [김 경일. 여성의 근대, 근대의 여성] – Kim Kyong Il. Ayollarning zamonaviyligi, zamonaviylik ayollari. 서울: 푸른 역사, 2004), 287, 303; 이만규. 조선 교육사 [Yi Man-gyu, Chosonda ta'lim tarixi]. – 서울: 거름, 1988. No. 2. – PP. 215–17.

⁶ Residency-General in Korea, *Administrative Reforms in Korea*. – Keijo, 1907. – p. 4.

⁷ Shidehara Taira. 조선교이교론[Choson ta'limi haqida bahslar]. – Tokyo, 1919. – p. 46.

asosida amalga oshirgan. 1911-yil avgust oyida e'lon qilingan 229-sonli imperiya Farmoniga muvofiq, yangi tartibdagi davlat maktablari qurish dasturi ishlab chiqildi⁸. Bu bir necha yil oldin Yaponiyaning o'zidagi ta'lim tizimini shakllantirgan "Ta'lim bo'yicha Imperator Farmoni"ning bosh tamoyillari asosida "*Kyoyiku chokugo*" dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, u mustamlaka Koreya uchun moslashtirilgan va yosh koreyaliklarda "axloqiy xarakter va umumiy bilimlar"ni tarbiyalashni maqsad qilgan. Bu jarayon haqida V. Karl Rufus: "Chosondagi Yaponiyaning milliy siyosati koreys irqining [yaponlar bilan] to'liq assimillatsiyasiga erishish bo'lgan. Yaponiya Aleksandrcha yumor bilan aytganda, Gordian tuguniga⁹ to'qnash kelgan. 1910-yilda qilich koreyalikni birgalikda ushlab turgan siyosiy rishtalarni kesib tashlab, yuqori markazlashgan [Yaponiya] Choson general-gubernatorligining harbiy boshqaruvi ularni Yaponiyaga bog'lab qo'ydi"¹⁰ deb yozgan edi.

1910-yilda qirollik ta'lim vazirligi – *Xakpu* bekor qilinib, o'rniga general-gubernatorlikning ta'lim byurosi – *Naimusho* tashkil qilindi. General-gubernator Terauchi barcha maktablarning uch turga bo'linishini taklif qilgan: *futsu* – umumiy, *jitsugyo* – sanoat, *senmon* – maxsus maktablar. Bu tartibga ko'ra, boshlang'ich ta'lim to'rt yil, o'rta ta'lim o'g'il bolalar uchun to'rt yil, qizlar uchun esa uch yillik qilib belgilandi. Mustamlaka maktablarining maqsadi qizlarda "milliy xususiyatlarni o'stirishga maxsus e'tibor qaratgan holda, kundalik hayotda zaruriy fundamental bilimlar, san'at, ona tilini keng qo'llash, bunga qo'shimcha, qat'iyatlilik va oilaparvarlik kabi ayollik fazilatlarini" singdirish bo'lgan. Va nihoyat, bu tizim "axloqiy fazilatlar va milliy ruhni tarbiyalash"ga qaratilgan¹¹.

1919-yil Birinchi mart harakatlari Yaponiya general-gubernatorligi hukumatini Koreyadagi siyosatni yumshatishga majbur qildi. Yaponlar nigohida koreyslarning bu mustaqillik namoyishi "mustamlaka xalqning ruhi va tanasi

⁸ Gail P. Kelly and Phillip G. Altbach. The Four Faces of Colonialism in *Education and the Colonial Experience*. – New Brunswick, NJ: Transaction, 1984. – p. 1-5.

⁹ Gordian tuguni – inglizcha "Gordian knot", tarixiy ibora bo'lib, Buyuk Aleksandr yurishlari bilan bog'liq. Ma'nosi o'ta jasurlik bilangina hal qilinishi mumkin bo'lgan murakkab muammo yoki vaziyat.

¹⁰ W. Carl Rufus. The Japanese Educational Policy in Korea // *Korea Review* 2. – Seoul, Jan. 1921. No. 11. – PP. 12–13.

¹¹ Taira Sh. 조선교이교론 [Choson ta'limi haqida bahslar]. – Tokyo, 1919. – PP. 201-3.

borligi”dan dalolat berar edi¹². Shu yili general-gubernator Terauchining o‘rniga Saito Makotoga (ikki marta general-gubernatorlik postiga tayinlangan: 1919-1927 va 1929-1931) boshqaruv vazifasi yuklandi. Saito Makoto general-gubernatorligi davrida koreyslarni yaponlashtirish uchun barcha imkoniyatlar ishga solindi. 1922-yilda ta’lim to‘g‘risida yangi Nizom qabul qilindi. Nizomga ko‘ra, koreyslarning “yaponlar bilan bir xil tizim ostida teng imkoniyatlarga ega bo‘lishi” belgilab qo‘yildi¹³. Bu davrning o‘ziga xos jihati, koreyslar yaponlardan alohida xalq sifatida emas, balki yapon tilida so‘zlashuvchi xalq sifatida qabul qilinishni boshlagan¹⁴. Ayni vaqtda, ta’lim tizimida barcha uchun o‘qish yapon tilida olib borilishi majburiy qilib belgilandi.

Nizom maktab ta’limini o‘g‘il va qiz bolalar uchun besh yil qilib belgilagan. General-gubernatorlik “faqatgina yangban qizlarni emas, balki barcha ayollarni o‘qita oladigan” xalq maktablarini qurish ishiga jiddiy e’tibor bergan¹⁵. Biroq umumta’lim maktablarida bir yillik farq saqlanib qolaverdi. Shuningdek, o‘ziga xos segregatsiya o‘rnatilgan bo‘lib, garchi yagona ta’lim tizimi va dasturi bo‘lishiga qaramasdan, yapon va koreys bolalar birga o‘qitilmagan. Koreys bolalarga koreys tili va tarixi fanlari o‘qitilgan bo‘lib¹⁶, bu ta’lim tilining yapon tili bo‘lganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, ta’lim Yaponiyadagidek barcha uchun majburiy bo‘lmagan.

Mustamlaka ma’muriyatining ta’limga oid islohotlari tarafdorlari ota-onalarni qizlarini maktabga yuborishga chaqirgan. O‘sha davr koreys mualliflaridan biri 1924-yilda o‘g‘il-qizlarini ro‘zg‘ordagi har xil yumushlar bilan band qilmasdan, oldin bog‘chaga so‘ngra maktabga yuborishga chaqirgan edi. U koreys bolalarni yapon bolalari bilan taqqoslar ekan, yapon bolalarining 5-6 yoshdan boshlab kitobga

¹² W. Carl Rufus. The Japanese Educational Policy in Korea // Korea Review 2. Seoul, Jan. 1921. No. 11. – P. 12.

¹³ Government-General of Chosen. – Annual Report on the Administration of Chosen 1926–1927. – Keijo, 1928. – PP. 96–97.

¹⁴ Yung-Chung Kim, ed., Women of Korea: A History from Ancient Times to 1945. – Seoul: Ewha Womans University Press, 1976. – P. 233.

¹⁵ Kim De Ho. 1910nyeondae – 1930nyeondae cho gyeongseong sinsawa jiyeok sahoeui gwangye: gyeongseong sinsau unyeonggwa hangugingwau gwangyereul jungseumeuro [김대호. 1910년대 - 1930년대 초 경성 신사와 지역 사회의 관계: 경성 신사의 운영과 한국인과의 관계를 중심으로] – Kim De Xo. 1910 – 1930-yillarning boshida Kyongson ziyoratgohi va mahalliy hamjamiyat: Kyongson ziyoratgohini boshqarish va koreyslar bilan munosabatlarga e’tibor]. – 서울: 동북 아역사 재단, 2009. – P. 11.

¹⁶ Carter J. Eckert, Ki-baik Lee, et. al., Korea Old and New: A History. – Cambridge: Korea Institute, Harvard University, 1990. – P. 97.

berilishi va barchasining maktabga borishini ta'kidlaydi¹⁷. 1920-yillardan boshlab, koreys bolalarining kelajagi uchun farzandlarini o'rta maktablarga bergan ota-onalar soni ortib bordi. "Tonga ilbo" gazetasi ma'lumot berishicha, 1922-yilga kelib, umumiy boshlang'ich ta'lim maktablariga qatnaydigan mahalliy o'quvchilarning soni o'n bir barobarga, o'rta ta'lim maktablarga esa yigirma besh barobarga oshgan¹⁸. Bu raqam ichida koreys qizlarining soni ham kam emasligi yapon mustamlakachilarining yarimoroldagi vaziyat borasida ayollarning rolini jiddiy e'tiborga olishda davom ettirganidan dalolat qiladi.

1922-yilda qabul qilingan nizom koreys yoshlari uchun chet elda o'qish imkoniyatini yaratdi. Shu yilning o'zida Yaponiyada o'qiyotgan koreys yoshlarining soni ming nafarga etib, ularning asosiy katta qismi Tokioda ta'lim olgan¹⁹. Tarixchi Jihang Pakning bergan ma'lumotiga qaraganda, xorijda o'qiyotgan koreys yoshlari umumiy sonining 80%i Yaponiyada, 20%i AQSh va Yevropada bo'lgan²⁰. Xorijga o'qish uchun ketgan koreyslar orasida qizlarning borligi ahamiyatli. "Tonga ilbo" gazetasi Sungdong cherkovida joylashgan Koreys ayollar ta'lim assotsiatsiyasi rahnamoligida Koreyaning o'zida yoki chet elda o'qish istagida bo'lgan ayol talabalarni qo'llab-quvvatlash masalasida o'tkazilgan debat haqida yozadi²¹. Bunday debatlar natijasida assotsiatsiya ayollarni moliyaviy, turar joy va zarur bo'lganda maslahat, yo'l-yo'riq ko'rsatish orqali yordam berish dasturlarini ko'rib chiqqan edi.

1919-yildagi Birinchi mart harakatlaridan so'ng, general-gubernatori Saito mustamlaka siyosatini biroz yumshatganini isbotlash hamda o'z mavqeini mustahkamlash maqsadida huzuriga bir guruh koreyaliklarni va missionerlarni chaqirib, ulardan *bunka seiji* [madaniy boshqaruv]ni o'rnatish borasida fikrlari bilan bo'lishishni so'raydi. Koreyada Protestant evangeliya missiyalari kengashi bu chaqiruvga etti bandli petitsiya bilan javob bergan: (1) missionerlar ochgan

¹⁷ Bak Daksong. iphak yeonryeongui janyeoreul dun gajeongege [박탁송. 일학 연령의 잔여를 둔 가정에게] – Pak Tal-song. Maktab yoshiga yetgan qialri bor oilalarga (murojaat)], 신 여성. March 1924. – P. 99.

¹⁸ Tonga ilbo, 1922-yil 6-mart soni.

¹⁹ Bak Daksong. iphak yeonryeongui janyeoreul dun gajeongege [박탁송. 일학 연령의 잔여를 둔 가정에게] – Pak Tal-song. Maktab yoshiga yetgan qialri bor oilalarga (murojaat)]. – 신 여성. March 1924. – P. 99.

²⁰ Jihang Pak. Trailblazers in a Traditional World: Korea's First Women College Graduates, 1910–1945. Social Science History. – Philadelphia, Winter 1990. No. 4. – P. 537.

²¹ Tonga ilbo, 1920-yil 1-may soni.

maktablarda Injil va diniy darslarning o'tilishiga ruxsat berish; (2) koreys tiliga qo'yilgan ta'qiqlarni bekor qilish; (3) maktablar boshqaruvida ko'proq erkinlik berish; (4) o'qituvchi va o'quvchilarga vijdon va e'tiqod erkinligi berish; (5) koreyslarga ta'lim va darsliklardan foydalanishda yaponlar o'quvchilar bilan teng imkoniyatlar berish; (6) xususiy maktablarning bitiruvchilariga davlat maktablari bitiruvchilari bilan bir xil imkoniyatlarni ta'minlash; (7) xususiy maktablarga qo'yilgan haddan ortiq moliyaviy talablarni qisqartirish²². General-gubernator Saito bu talablardan maktablarda yapon tilining tanlov fani sifatida belgilanishiga rozi bo'lish bandinigina qabul qilgan, xolos.

Yaponiya kolonizatsiyasi davrida koreys ayollari erishgan yagona yutuq – ehtimol, ta'lim olish imkoniyatining berilgani. Koreyadagi patriarxal tizim ayollarda quyidagi xislatlar bo'lishi lozim deb hisoblar edi: yaxshi qiz farzand bo'lish, yaxshi xotin bo'lish va yaxshi ona bo'lish. Bunday qadriyatga asoslangan ta'lim-tarbiya me'zonlari Koreyadagi patriarxal tuzumni mustahkamlash uchun itoatli ayollarni etishtirishga xizmat qilgan.

Choson qirolligining so'nggi davriga kelib ta'lim erkaklar uchun juda katta ahamiyat kasb etdi. Shunga qaramay yangban oilalarda qizlarni o'qitish uchun xususiy o'qituvchilar yollanib, zodagon xonimlar o'qish va yozishga o'rgatilgan. Quyi tabaqaga mansub xotin-qizlarda bunday imkoniyat bo'lmagan va ular norasmiy o'quv kurslarida oila va ro'zg'or uchun kerakli bo'lgan hunar va malakalarni o'rganish bilan cheklanishgan. Bu sabablarga ko'ra, koreys ayollari savodsizligi odatiy hol bo'lib, 1930-yilga kelib ularning 90%i o'qish-yozishni butkul bilmagan; ayollar ta'limidagi sa'y-harakatlarga qaramay, 1950-yillarda ham ayollarning 80%i savodsizligicha qolgan²³.

Mahalliy koreys ziyolilarining yapon ta'lim tizimiga nisbatan qarashlari salbiy bo'lib, ular mustamlakachi tuzum maqsadlarini yaxshi anglashgan, albatta. Ulardan biri davriy nashrlardan birida, jumladan, shunday yozadi: “Men biror o'qimishli otaning qanday qilib bu o'qituvchilarga o'g'lini yuborishi mumkinligi

²² *Korea Review* 3, no. 1. 1921-yil mart soni. p. 14.

²³ Seth M. J. *A History of Korea. From Antiquity to the Present*. – Plymouth: Rowman & Littlefield Publishers, 2011. – p. 285.

tushuna olmayman. Ular o'rganishi mumkin bo'lgan yolg'onlar haqida o'ylang!... O'sha qilich taqib yuruvchi firibgarlar nimalarni targ'ib qilishini o'ylang. Qaroqchi o'qituvchilar, dehqonlar va do'kondorlar bu erga tekinga kelishmoqda va bizning vatandoshlarimizdan imkoniyatlar o'g'irlanmoqda. Ularning xaritalari haqida o'ylang – mustamlakachi geografiya! Ularning kitoblari – imperiyachi revizialistlar tarixi! Va albatta, mumtoz hech narsa o'qitilmaydi. Ular johil xoin qo'ylardan iborat xalqni o'stirishni nazarda tutishadi”²⁴.

Rossiya imperiyasi boshqaruvi ostida mustamlakalarda tashkil qilingan rus-tuzem maktablarida o'qitish tili rus tili bo'lganidek, yapon mustamlakalarida ham maktablarda o'qitish yapon tilida olib borilgan. Koreys milliy alifbosi *xangil* hamda xitoy iyerogliflari asosida shakllangan *xanjadan* foydalanish ta'qiqlanib, ularning o'rniga yaponcha *kanji* joriy etildi²⁵. Yapon general-gubernatorligi tomonidan o'tkazilgan ta'lim islohotidan ko'zlangan asosiy maqsad – koreys bolalari va yoshlarini yaponlarga nisbatan xayrixohlikda tarbiyalashdan iborat bo'lgan. Shu boisdan bu tizimni o'ziga xos “dudama qilich”²⁶, deb atash mumkin.

Koreyalik yozuvchi Pak qalamiga mansub roman qahramoni Keokoning tilidan yozilgan quyidagi parchani olaylik: “Bizning barcha darslarimiz yapon tilida o'qitilar edi. Biz yapon tilini, madaniyatini va tarixini o'qir edik. Maktablarda Koreya tarixi yoki tilini [...] o'qitishga ruxsat berilmagan. Mening sochlarim kalta qilinib, iyagimgacha, peshonagajak qilib qirqilgan, negaki maktabga borishni boshlaganimda talab qilingan soch turmaklash uslubi shunday edi [...]. Har kuni butun maktab hovlida Imperatorning ta'lim siyosatini yoddan takrorlash uchun yig'ilar edi. Biz yapon milliy madhiyasini kuylar edik”²⁷.

Ko'ngilli ravishda sochlarini kalta qirqib yuradigan “yangi ayol”lardan farqli oddiy aholi bu holatga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lmagan, degan xulosaga

²⁴ Kim Eugenia. *The Calligrapher's Daughter* / Novel. – London and New York: Bloomsbury Publishing House. 2009. – p. 21.

²⁵ Bu siyosatda g'alati tarafi shundaki, aslida xanja va kanji – har ikkisi ham xitoy iyerogliflaridan o'zlashtirilgan bo'lib, har uch tilde bir xil ma'noni anglatadi. Faqatgina talaffuzi va o'zlashtirish davridan kelib chiqib bir qismi yozilishiga ko'ra farq qilishi mumkin, xolos (tadqiqotchi).

²⁶ Buja E. *An Image of Korean Women during the Japanese Occupation of the Peninsula, as It Emerges from Literary Masterpieces* // *Acta Universitatis Sapientiae, Philologica*, 2021. – p. 78.

²⁷ Park L. S. *When my name was Keoko.* / Novel. – New York: Clarion Books, 2002. – 208 p.

kelish mumkin. Ularning zamonaviyligi, ilg'orligi va erkinligini ko'rsatib turadigan moddiy elementlarning maktab uniformasi tarkibiga kiritilishi koreys qizlarini yaponlashtirish siyosatiga o'ziga xos qobiq vazifasini o'tagan, degan tasavvur paydo bo'ladi. Zotan bu holat 1910-yillardan boshlash tashkil qilingan gazeta, jurnal va boshqa nashrlarda ayollar erkinligi va zamonaviyligining keng targ'ib qilinganligi ham bu xulosa uchun etarlicha asosdir.

Mustamlaka sharoitida xristian maktablarida xotin-qizlar ta'limidagi muammolar.

General-gubernatorlik missionerlar tomonidan tashkil qilingan maktablar Yaponiya mustamlaka siyosatini unumli olib borishda to'sqinlik qiladi, deb hisoblagan. Xristian maktablarining ta'lim orqali g'arb madaniyati va mafkurasiga yaqinlashuvi mustamlakachilik maqsadlariga to'sqinlik qilar edi. Mustamlakachi ma'muriyat koreys xalqining yaponlar bilan assimiliyatsiyasi yarimorol tashqi olamdan butunlay uzib qo'yilgan holatda osonroq kechadi, deb hisoblagan.

Missionerlar maktablariga hujum 1908-yildayoq boshlangan: shu yili "*Shiritsu gakko rei*" – xususiy maktab bo'yicha farmon qabul qilingan²⁸. Unga ko'ra, barcha toifadagi diniy va dunyoviy xususiy maktablar hukumatning yangi tartiblarini qabul qilishi shart va har bir direktor Ta'lim byurosiga maktabining holati haqida yillik hisobot taqdim etishi majburiy qilib qo'yilgan. Bundan tashqari, darsliklar, jihozlar, bino hamda hovlining talabga moslashtirilishi ko'plab missionerlik maktablari uchun "juda katta miqdordagi moliyaviy sarf-xarajatlar qilishni anglatgan"²⁹. Tekshirishlar natijasida hukumat yarimoroldagi ikki mingtaga yaqin xususiy maktablarni qoniqarli zahira, xodimlar yoki o'quv jihozlariga ega bo'lmaganligi bois, ta'lim maskanlari sifatida faoliyat ko'rsatish uchun yaroqsiz, deb topgan edi. Bunga qo'shimcha ravishda "sog'lom ta'lim faoliyati bilan shug'ullanishning o'rniga ularning ba'zilari [ya'ni, xususiy maktablar] hukumatga qarshi tashviqot faoliyati bilan shug'ullanmoqdalar va isyonchilik ruhidagi daslik kitoblardan foydalanmoqdalar"³⁰,

²⁸ Korea Review 3, no. 1, March 1921. – P. 15.

²⁹ James Earnest Fisher. Democracy and Mission Education in Korea. Ph.D. diss. – New York: Columbia University, Teachers College, 1928. – P. 7.

³⁰ Theodore Jun Yoo. The Politics of Gender in Colonial Korea. Education, Labor, and Health, 1910-1945. – Berkeley: University of California Press. 2008. – P. 64.

degan ayblov ham qo'yilgan. Ta'lim byurosining yangi tartibi 1912-yilgacha barcha xususiy maktablarga hukumat talabiga ko'ra moslashish talabini qo'ygan. Bu tartiblar Injilni o'qitish soatlarini qisqartirib, darslarni dunyoviylashtirishni nazarda tutgan. 1911-yilning oxiriga kelib xususiy maktablar soni 1700 taga kamaydi (ularning 700 tasi missionerlik maktablari edi), 39 ta maktab mustamlakachi ma'muriyat tomonidan tan olingan, xolos. 461 ta maktab moliyaviy etishmovchilik tufayli majburan yopilgan. Ba'zi maktablar diniy darslarning cheklanishiga javoban, mavjud rejim bilan kelishishdan ko'ra, faoliyatini to'xtatishni afzal bilgan³¹.

Koreys xotin-qizlarining ta'lim olishi asosan xristian missionerlari tomonidan amalga oshirilganligi bois, yapon hukumati tomonidan qabul qilingan bu yangi tartib tufayli maktablarning yopilishi ularning keyingi ta'lim olish imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bundan tashqari, 1922-yilda Missionerlar Kengashi konferensiyasida missionerlik faoliyati doirasida tashkil qilingan maktablarning hukumat tomonidan tan olinishiga erishish vazifa sifatida qo'yildi³². Natijada, bu vazifani amalga oshirish uchun zarur chora-tadbirlar ko'rish, xususan, maktablarning moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash uchun moliyaviy masalani hal qilish talab qilinar edi. Ba'zi maktablar xorijlik homiylar yordami orqali xarajatlarning bir qismini qoplay olgan, ammo ko'pchilik maktablar o'qitish puli va boshqa qo'shimcha to'lovlarni joriy qilishga majbur bo'lgan³³. Ikkinchi turkum maktablar ichida Ehva xaktang ham bor bo'lib, bunday qo'shimcha xarajatlari barcha o'quvchi qizlarning ota-onalari uchun imkoniyat doirasidan tashqarida bo'lgan. 1934-yilda "Tonga ilbo" gazetasida e'lon qilingan xabarga ko'ra, Ehva xaktangda o'qiydigan qizlar barcha o'qish xarajatlarini qoplash uchun 380 von to'lashi kerak bo'lib, bu pulga yana 100 von qo'shilganda, Yaponiyaga borib yana ham yuqori nufuzli oliy o'quv yurtida o'qishi mumkin bo'lgan³⁴. Boshqa bir yozuvchi esa oldinlari maktablarda o'quvchilarga bepul beriladigan darsliklar, daftarlar va ruchkalar xarajatlarni qoplash uchun endilikda har

³¹ O'sha joyda.

³² Scott W. *Canadians in Korea: Brief Historical Sketches of Canadian Mission Work in Korea*. Toronto: Board of World Missions, United Church of Canada, 1975. – P. 121.

³³ Chong Jul Ryang. Ihwa 80 yeoksa [정충량. 이화 80 역사] – Chong Chung Ryang, Ehvaning 80 yillik tarixi]. 서울: 이화 여대 출판사, 1967. – PP. 247–48.

³⁴ *Tonga ilbo*, 1934-yil 17-fevral soni.

oyda qo'shimcha to'lovlar joriy qilindi³⁵, deb yozadi. Bunday qo'shimcha to'lovlar shu paytgacha barcha uchun ochiq va imkoniyatlari doirasida bo'lgan yagona ta'lim tizimi sanalgan missioner maktablarining qamrovini toraytirdi. Bir tarafdand, missionerlik maktablarining bunday siyosat yuritishdan boshqa iloji ham bo'lmagan, boshqa tarafdand, xotin-qizlarni o'qitish borasida hali to'liq "demokratlashib ulgurmagan" ota-onalar uchun qizlarini o'qitish ortiqcha pul sarflash bo'lganligini ham e'tiborga olish kerak.

Ta'lim muassasalarining etishmasligi tufayli qizlar va yigitlar ta'limi o'rtasida endi kamayishni boshlagan farq yanada kattalasha boshladi. Misol uchun, 1919-yilda koreys bolalarining 84,306 nafari yoki 3,7 foizi davlat boshlang'ich maktablariga borgan³⁶. Missionerlik maktablari soni 1912-yildagi 1317 tadan 1919-yilda 690 taga qisqarib ketgan, biroq hukumat ularning o'rniga yangi maktablarni ochish masalasini ko'rib chiqmagan. Shuningdek, qizlar va o'g'il bolalar uchun tashkil qilingan maktablar soni orasida ham keskin farq bor edi: 1919-yilda koreys o'g'il bolalari beshta davlat va ettita xususiy oliy maktab uchun hamda koreys qizlari uchun esa ikkita davlat va to'rtta xususiy oliy maktab mavjud bo'lgan, xolos³⁷. Shu tariqa, bir tarafdand missionerlik maktablari yopilgani, ikkinchi tarafdand hukumat tomonidan e'tiborsiz qoldirilganligi tufayli koreys qizlarining ta'lim olish imkoniyatlari qisqarib ketdi.

1930-yillardand e'tiborand Yaponiya imperiyasi butun diqqat-e'tiborini urush harakatlariga qaratdi. Yaqinlashib kelayotgan ikkinchi jahon urushiga tayyorgarlik natijasida barcha ijtimoiy masalalar qatorida ta'lim islohotlari ham ikkinchi darajaga tushib, Koreyaning Yaponiya uchun platsdarm vazifasini bajarishi kun masalasiga aylangan. Aynan shu davrda koreys ishchi ayollarining birinchi avlodi ham shakllandi. Ular ikkinchi bob uchinchi paragrafida ko'rib chiqilgan ayollar harakatining sotsialistik guruhlarini ishini davom ettirishgan. Albatta, yapon mustamlakachi hukumati ularga qarshi doimiy tazyiq o'tkazish siyosatini yuritgan

³⁵ Yeoja kyoyugi sokkeumgwan ["여자 교육의 석금관"] – Qizlar ta'limi o'tmishi va buguniga nazar], shin yoseung, 1926-yil aprel oyi soni, 9–10-betlar.

³⁶ Andrew Nahm, Korea: A History of the Korean People. – Elizabeth City, NJ: Hollym, 1988. – p. 250.

³⁷ O'sha manba, 251-bet.

bo'lsa ham, bu harakat izsiz yo'qolmagan. Aksincha, 1947-yilda tashkil KXDR hukumati tarkibida sanoqli bo'lsa ham sotsialist ayollarni ham ko'rish mumkin³⁸.

Shunga qaramay, bu davrning yagona yaxshi tarafi – qizlarning qaysi tabaqaga mansubligi yoki ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar ta'limga jalb qilingani bo'lib, ularning soni doimiy ravishda ko'payib borgan. Bu jarayonning o'ziyiq koreys jamiyatida keskin o'zgarishlar sodir bo'layotganidan darak berar edi³⁹. Shuningdek, etnik bo'linishlarga qaramasdan, boshlang'ich maktablarda qizlar va o'g'il bolalar birga o'qitilgan. Avvalgi patriarxal tuzumdan farqli bunday ta'lim tizimi jamiyatda asta-sekinlik bilan gender notenglikning kamayib borishiga xizmat qildi. Yapon mustamlakachiligi davrida boshlangan bu an'ana tufayli hozirga kelib, Koreya oliy ta'limida ayollarning ulushi 50% ga yaqinlashib qolganini ko'rish mumkin. Biroq, ayollarning ta'limga ko'plab jalb qilinishi ikkinchi jahon urushi davrida juda jiddiy qurbonlikka sabab bo'lgan edi. Bu masala ushbu bobning to'rtinchi paragrafida ochib berilgan.

Yaponiya mustamlaka ma'muriyati media-axborot xizmati koreys xotin-qizlarini tasvirlashda ikki xil turdagi vizual materiallardan keng foydalangan: (chizilgan) rasmlar va fotosuratlar. Yapon nashrlari hukumat targ'ibot siyosatining muhim vositalari bo'lib, ulardagi vizual materiallarni o'rganish jarayonida quyidagi xususiyatlar alohida ajralib turadi.

Yaponiyaning yarimoroldagi general-gubernatorligi “Yaponiya-Koreya – bir butun” shiorini amalga oshirishda aholining barcha qatlamlarini qamrab olgan nisbatan passiv yoki “yumshoq” siyosat olib borgan. Mustamlaka davrining ilk yillarida hukumat koreyslarga nisbatan barcha hurmatli fuqarolarni (koreys yoki yapon bo'lishidan qat'iy nazar) yagona milliy hamjamiyati sifatida ifodalashni afzal ko'rgan. Yapon tilida chiqadigan yarim rasmiy gazeta “Keijo nippo”da bosilgan fotosuratlarni ko'zdan kechiraylik (Ilova 2, 35- va 36-rasmlar). Bu suratlar umumiy ma'noda, yapon mustamlaka boshqaruvining ma'lum davrida koreys madaniyati

³⁸ Park K. A. Women and Social Change in South and North Korea: Marxist and Liberal Perspectives. Women and International Development. – East Lansing: Michigan State University. 1992. – P. 40.

³⁹ Hwang K. M. A History of Korea. – London: Palgrave Macmillan, 2010. – PP. 185-188.

elementlaridan kiseng va xanbok turli qo'shma (yoki aralash) marosimlarda yapon madaniy elementlari bilan uyg'unlikda uchraganiga misoldir.

Biroq yapon general-gubernatorligining o'ziga xos bu madaniy siyosati tagida "ayollar xizmati"ni taklif qilish orqali turizmni rivojlantirish yotgan. An'anaviy yapon jamiyatida geysalar an'anaviy koreys jamiyatidagi kisenglar bilan bir xil mavqeni egallaganligi bunga asos bo'lib xizmat qilgan⁴⁰. Ammo bunda kisenglarni ham, geysalarni ham ayblab bo'lmaydi. Tadqiqotchi Henri Todd bu ikki guruhni "jamiyatga faol kirishishni boshlagan xotin-qizlarning birinchi vakillari" deb ataydi⁴¹. Koreya tarixiga oid ayollar rasmlar va fotosuratlarining asosiy katta qismida aynan kisenglarni ko'rish mumkin. Kisenglar bir qator stereotiplarga qaramasdan XX asrgacha bo'lgan davrda ham Koreyadagi savodli ayollarning katta qismini tashkil qilgan hamda madaniyatning turli yo'nalishlarini tashuvchi bo'lishgan. Ular mamlakatning ziyoli qatlamiga yaqin bo'lgani bois, yangiliklardan birinchilardan bo'lib xabardor bo'lishgan. Ahamiyatli jihati shundaki, XX asrning birinchi choragiga kelib, zamonaviylashuv ommalashib borgan sari kisenglar qatlami an'anaviy madaniyatning saqlovchilari, kiyinish, raqs hamda boshqa shu kabilarning faol ijrochilari sifatida o'zlarini ko'rsatishgan edi.

Kisenglar an'anaviy marosimlar va tadbirlar o'tkazish odatlarining merosxo'rlaridir. Shu boisdan yarimorolga radio, fonograf, foto va videokameralar kirib kelganda, ular tomonidan olingan materiallarda aynan ularni ko'plab ko'rish mumkin bo'ldi. Kvon Bun maktabining mashhur qo'shiqchilaridan Vang Su Bok, Sun Vu Ilsun, Kim Bok Xi kabilarning fonografda olingan suratlari anchagina qimmatga baholangan edi. Birinchi koreys kinoaktrisalari Li Mun Xva, Sok Venus Sung va Hye Suk Do uchligi mashhur bo'lgan. Naunkyu tomonidan olingan "Arirang" filmida [1926] asli kiseng bo'lgan Shin Il Vu bosh rolni o'ynagan edi⁴².

⁴⁰ Henry, Todd A. *Assimilating Seoul: Japanese Rule and the Politics of Public Space in Colonial Korea, 1910-1945*. – Berkeley: University of California Press, 2014. – P. 70.

⁴¹ O'sha manba. 72-bet. Shuningdek, qarang: *Colonial Modernity in Korea*. Editors: Gi Wook Shin, Michael Robinson. Published by the Harvard University Asia Center and distributed by Harvard University Press Cambridge (Massachusetts, USA) and London, 1999. – P. 491.

⁴² Arirang – deyarli 600 yillik tarixga ega bo'lgan koreys xalq folklori namunasidir. Shu boisdan ham tinglovchilarning birgalikda qo'shiqni kuylagani hayratlanarli emas. Qo'shiq haqida ko'proq ma'lumot olish uchun qarang: <https://en.wikipedia.org/wiki/Arirang>

1939-yil iyun oyida Yaponiya mustamlakachiligi davrida yapon tilidagi jurnallardan biri “Choson madaniyati” [‘Culture Joseon’] tashkil etilgan edi. Jurnal har oyda ikki marta Yaponiya sayohat assotsiatsiyasining Koreya bo‘limi tomonidan nashr etilib, avvaliga 1939-yil iyunidan 1940-yil noyabrigacha jurnal nomi “Choson bo‘ylab sayohat” [‘Tour Joseon’] deb berilgan. 1940-yil dekabrda esa “Choson madaniyati”ga o‘zgartirilgan va 1944-yil noyabrigacha shu nom ostida nashr qilingan⁴³. “Choson madaniyati” jurnalini ikki faktga ko‘ra mashhur bo‘lgan deyish mumkin: undagi materiallar nafaqat oddiy sayohatchilarga, balki modernizatsiya va urush davri masalalariga qiziquvchi tadbirkorlar, ma’murlarga ham yo‘naltirilgan; ikkinchidan, jurnal bora-bora faqat sayohatlar haqida emas, balki butun Choson davri madaniyati haqida ma’lumot beruvchi davriy matbuot nashriga aylanib bordi.

Ko‘p hollarda matnlar va kamdan-kam chizilgan rasmlar berib boriladigan boshqa davriy nashrlardan farqli ravishda “Choson madaniyati” jurnalini sahifalarida ham rasmlar, ham fotosuratlarini, xususan, koreys ayollari tasvirlarini ko‘plab uchratish mumkin. Garchi jurnal keng o‘rganilmagan hamda uning barcha sonlarini topish mushkul bo‘lsa ham, mavjud sonlarining o‘zi ham etarli ma’lumotlarni beradi. Bu jurnal uchun maqolalar va postlar tayyorlagan yigirma nafar koreys ziyoli va madaniyat vakillari ichida Kim So Un, Sok Ha, Yi Hong Ju, Jang Hyok Ju, Kim Gi Rim, Kim Pal Bong, Yi Kvang Su, Im Hwa, Yi Hyo Sok, Kim Sa Ryang, Jong Ji Yong, Ju Yo Han, Son Jin Te, Jo Yun Je, Kim Jong Xan kabilar bor edi. Har bir muallif tomonidan yozilgan maqolalarning soni esa ko‘pchilikni tashkil qiladi.

1926-yil 1-oktabr kuni Seulda joylashgan Dansung teatrida namoyish qilingan bu nomdagi film oq-qora rangda bo‘lib, inqilobiy mazmuni bilan mamlakat ahlini hayratga solgan edi. Film yakunida filmdan ta’sirlangan tomoshabinlar Arirang⁴² qo‘shig‘ini birgalikda kuylashgan. Film suratga olingan vaqt hamda uning nomi - mustamlakachilik davrida koreys rejissor tomonidan uyg‘onish harakatiga qo‘shilgan hissa deyish mumkin. Bunga o‘sha davrda “Antiyapon milliy ruh” deb atalib, filmning ahamiyati ham ana shu ruhga mos kelganligida deyish mumkin. “Arirang” filmi koreys kinematografiyasining ilk omadli mahsulot bo‘lib, Choson Kinema Production tomonidan olingan ikkinchi filmidir. “Arirang” filmi milliy koreys film sanoatining boshlanishi ham hisoblanadi. Film chiqishidan oldin e’tibordan chetda bo‘lgan qo‘shiq film chiqqandan keyin yangicha mazmun kashf etdi. Qo‘shiq temiryo‘l quruvchilari tomonidan Naunkyuning ona shahri Hoeryongdan Sinzs sin shahrigacha bo‘lgan yo‘lda kuylangani aytiladi. Film haqida batafsil: <https://ppss.kr/archives/227710>. Film haqida tayyorlangan hujjatli film: <https://www.youtube.com/watch?v=TudjUaQqUpw>

⁴³ 1944-yilning noyabr oyidan keyin AQSh Tinch okeani havzasidagi bir qator orollarni qayta egallashga muvaffaq bo‘lib ulgurgan hamda Yaponiyaga qarshi harakatlar olib borishni ham boshlagan edi. Natijada urush amerikaliklar foydasiga hal bo‘laishni boshlashi bilan, “Choson madaniyati” jurnalini boshqa nashrlar kabi o‘z faoliyatini to‘xtatgan bo‘lishi ehtimoli yuqori. Zotan, qisqa fursat ichida Yaponiya mag‘lubiyati aniq bo‘lib qolgan edi.

Jurnal koreys madaniyati elementlarini provinsiyalarga bo‘lib taqdim etgan. 1941-yil iyul oyidagi Cheju oroliga bag‘ishlangan sonda e‘lon qilingan koreys ayolining fotosurati diqqatni tortadi. Ayol qoyada tik turgancha uzoqlarga tikilgan holda tasvirlangan. Bu “Choson madaniyati” jurnalining *naisen ittai* siyosatini targ‘ib qilishdagi o‘ziga xos uslubi hisoblanadi. Ya’ni, ushbu surat koreys va yapon millati bir butun ekanligini, har ikki millat ayollari ham o‘ziga ishongan va ozodligini ko‘rsatishi lozim bo‘lgan, amalda bu yapon targ‘ibotidan boshqa narsa emas edi. Vaholanki, “Choson madaniyati” maxsus sonlaridan birida: “Bu urush davrida bizning jurnalimiz yarimorolning tarixi va undan tashqarida rivojlanayotgan madaniyat haqida butun haqiqatini yoritadi”⁴⁴, deb da’vo qilingan edi.

Koreys ayollari tashqi ko‘rinishidagi zamonaviy o‘zgarishlar yaponlar tomonidan jiddiy qo‘llab-quvvatlangani yapon tilida va imperiya nazorati ostida chiqadigan boshqa barcha nashrlarda e‘lon qilingan vizual materiallardan ochiq ko‘rinib turibdi. Ular qo‘llab-quvvatlash bilan cheklanmasdan, yosh qizlarni o‘rnak olishga chaqirishgan ham. Yapon nashrlaridan birining muqovasidagi quyidagi suratga diqqatni qaratsak. Jurnalning yangi yilga bag‘ishlangan maxsus sonda tasvirlangan bu rasm fotosurat emas, ammo u o‘sha davrda koreys ayollariga nisbatan mustamlakachi hukumatning munosabatni aks ettiradi. Maxsus son “Jozibali yangi ayol” [*segame-shin*], deb nomlanib, muqovadagi ayol kiyimi hamda soch turmagidan⁴⁵ ko‘rinib turibdiki, suratda koreys ayoli tasvirlangan va u uzoqlarga qaragancha beg‘am o‘y surib turibdi. Uning an’anaviy xanbokda ekanligi yapon nashrlarida berib boriladigan ko‘plab boshqa rasmlarga xos xususiyat (ilovaga qarang). Biroq barcha jurnal va gazetalar ham ayollarni bu ko‘rinishda tasvirlamagan, zamonaviylik va noan’anaviylikning ijobiy taraflariga xayrixoh bo‘lgan ilg‘or fikrlilar ham ko‘plab topilgan.

1920–1940-yillarda nashr qilingan yapon tilidagi davriy matbuot sahifalaridagi tasviriy materiallarini o‘rganish orqali koreys ayollarining hozirgi vizual obrazining shakllanish jarayoni amalda tugallanganini ko‘rish mumkin. 1940-

⁴⁴ “Choson madaniyati”, 1941-yil sentabr oyi soni, 94-bet.

⁴⁵ Tasvirdagi ayolning soch turmagi XX asrning 20 - 30-yillarida urf bo‘lgan Bob style bo‘lib, koreys ayollari orasida ayniqsa keng tarqalgan edi.

yillarga kelib, an'anaviylik va zamonaviylikning o'zaro qorishmasini aks ettirgan koreys ayollari obrazi yaratildi. Albatta, bu obraz bir qator qarama-qarshiliklar va tanqidlarga uchragan bo'lsa ham, o'ziga ishonch, mustaqil fikrlilik hamda irodalilikni jamlagan koreys ayoli ta'rifidga aylandi, deyish mumkin.

Mazkur paragrafda keltirilgan ma'lumotlar hamda ilovada keltirilgan vizual materiallarni o'zaro tahlil qilish natijasida, mustamlakachilik davrida koreys ayollari vizual obrazining shakllantirilishida o'ziga xos uch yo'nalish mavjud bo'lganligi aniqlandi:

(1) an'anaviy yozma va tasviriyl materiallar ayollarni itoatkor va zaif qilib tasvirlangan – bu o'sha davrning zamonaviy, erkin va o'ziga ishonchi ko'rinib turgan yapon ayollarining butunlay aksi edi. Bunday materiallarda koreys ayollarini har doim *xanbok*da ko'ramiz. Bu orqali yaponlar koreys ayollari “yaponlar tomonidan madaniylashtirilishi va ozodlikka chiqarilishi kerak”, degan g'oyani targ'ib qilmoqchi bo'lishgan.

(2) an'anaviy koreys liboslarida tasvirlangan koreys ayollari ko'p hollarda yapon kishilarga choy ikrom qilgan ko'rinishda yoki uy xo'jaligida biror yumush bilan mashg'ul tarzda tasvirlangan. Bu bilan ularning qanchalik quyida ekanligini ko'rsatishga harakat qilingan, deb taxmin qilish mumkin. Vaholanki, koreyslarning o'zlari tomonidan yaratilgan rasmlarda ayollar kuchli, mustaqil va zamonaviy ko'rinishda tasvirlangan.

(3) va nihoyat, *xanbok* kiygan koreys ayollarining beg'am, ko'pincha havoyi fikrlangan holda berilgan rasmlari. O'sha davrdagi kurashchi ayollarning ko'pligi va koreys ayollarining bilimi va dunyoqarashi tobora kengayib borayotganiga qaramay, yaponlar ularni omi qilib tasvirlashga moyilligi ko'riladi. Xususan, “Choson madaniyati” jurnali muqovasidagi ayolning tasvirini tarixiy reallikdan chekinish, deb qabul qilish to'g'ri bo'ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mustamlakachilik tuzumi koreys ayollarining vizual obraziga ziddiyatli va murakkab ta'sir o'tkazgan. Yapon mustamlaka siyosati va targ'iboti koreys xotin-qizlariga nisbatan tor va stereotiplardan iborat biryoqlama yondashuvni targ'ib qilgan. Ularni koreys rassomlari va yozuvchilari tomonidan

yaratilgan ishlar va xorijliklar qoldirib ketgan turli materiallar bilan yonma-yon qo'yib taqqoslash koreys ayolining umumiy obrazini haqiqatga yaqinroq qilib tushunib olish uchun imkon beradi. Albatta, bu o'rinda, koreyslarning qalamiga mansub barcha ishlarni ham yuz foiz to'g'ri va haqqoniy deb qabul qilish – tarixiy haqiqatni inkor qilish bo'lishi mumkinligini hisobga olgan holda, har qanday mavjud ishlarni o'zaro taqqoslash maqsadga muvofiqdir. Jumladan koreyslar tomonidan “shin yosong”larga bag'ishlab ishlangan ba'zi karikaturalar o'ta mubolag'aga to'lib-toshgan hamda jiddiy izohlarni talab qiladi.